**X.A.Kuvvatovning “Zooinjeneriya va mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi ” fakulteti 60811500 – Zooinjeneriya (qorako‘lchilik) ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalariga “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Katta qorindagi mikroorganizmlar miqdorini aniqlash” mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg‘ulotiga**

# T A Q R I Z

Laboratoriya mashg‘ulot mavzusi fan dasturi va ishchi o‘quv dasturiga to‘liq mos keladi. “Katta qorindagi mikroorganizmlar miqdorini aniqlash” mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulot, matni yangi pedagogik texnologoyalardan foydalanilgan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Dastlab amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, amaliy mashg‘ulotini o‘qitishning pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Laboratoriya mashg‘ulotning texnologik xaritasida esa o‘quv mashg‘ulotining vaqti ko‘rsatilgan.

Agar mavzuda belgilangan reja ketma-ketligiga rioya qilinib, ko‘rgazmali qurollardan o‘z vaqtida foydalanib, tayanch iboralarga izoh berib, amaliy mashg‘ulotda talabalar bilan muloqotda bo‘lib, mavzu yuzasidan fikrlar so‘ralib, o‘tilsa, maqsadga erishiladi. Mavzuning oxirida nazorat savollari va nostandart testlardan ham foydalanilgan.

Mavzuning shakli va mazmuni uslubiy to‘g‘ri yozilgan shuning uchun X.A.Kuvvatov tomonidan tayyorlangan “Katta qorindagi mikroorganizmlar miqdorini aniqlash” mavzusidagi ochiq laboratoriya darsini o‘quv jarayonida joriy qilishni tavsiya qilaman.

**Veterinariya ilmiy tadqiqot**
**Instituti “Vetsanitariyasi va**
**urchitish” laboratoriyasi mudiri v.f.d. Qo‘ldoshev O.O‘.**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexniligiyalar universiteti**

**X.A.Kuvvatovning "Zooinjeneriya va mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi " fakulteti 60811500 – Zooinjeneriya (qorako'lchilik) ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalariga "Hayvonlar fiziologiyasi" fanidan "Katta qorindagi mikroorganizmlar miqdorini aniqlash" mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg'ulotiga**

# T A Q R I Z

X.A.Kuvvatovning "Katta qorindagi mikroorganizmlar miqdorini aniqlash" mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg'ulot darsining uslubiy ko'rsatmasida ushbu muammoning dolzarbligi, uni o'rganishni veterinariya amaliyotidagi ahamiyati atroflicha yoritilgan. Mavzuda mavzuga oid atamalar, ularni izohlari tushuncha holatida berilgan. laboratoriya mashg'ulotda foydalaniladigan jihozlar sanab o'tilgan. Bundan tashqari laboratoriya mashg'ulotning asosiy qismi to'liq yoritilgan.

Laboratoriya mashg'ulotning taqdimotida "Hayvonlar fiziologiyasi" fanidan "Katta qorindagi mikroorganizmlar miqdorini aniqlash" mavzusi batafsil yoritilgan bo'lib, kata qorindagi mikroorganizmlarning turlari, vazifalari, ahamiyatini bilish va ularning miqdorini aniqlashni o'rganish tushunchalari keltirilgan. Shuningdek, amalda tajriba ishlari bilan mavzu mustahkamlangan. Bundan tashqari, dars pirovardida mashg'ulot bo'yicha ishlanma talabani fikrlash qobiliyatini oshiruvchi va shular asosida slaydlar orqali mavzu aniq izohlangan.

Laboratoriya mashg'ulot taqdimotida internet ma'lumotlaridan, slaydlardan rangli rasmlardan foydalanilganligi mavzuni talabalar tomonidan chuqurroq o'zlashtirilishiga yordam beradi.

X.A.Kuvvatovning "Hayvonlar fiziologiyasi" fanidan "Katta qorindagi mikroorganizmlar miqdorini aniqlash" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti matni va slaydlari hozirgi zamon innovatsion ta'lim texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi deb hisoblayman va uni o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**"Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi**
**va patologik fiziologiya" kafedrasining**
**dotsenti, b.f.n. D.Eshimov**